DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.7634429 Pages: 565-570



WOMEN IN SUSTAINABLE DEVELOPMENT: SCIENCE AND QUALITY EDUCATION

3RD INTERNATIONAL CONFERENCE



YANGI DEMOKRATIK O‘ZGARISHLAR YO‘LIDAGI O‘ZBEKISTONDA GENDER SIYOSATINING HUQUQIY HOLATI VA AYOLLARNING MULKIY MUNOSABATLARDA FAOL ISHTIROKINI TA’MINLASH CHORALARI

Gulshan Sharipova
Axborot resurs markazi bo‘lim mudiri
Toshkent davlat yuridik universiteti
guli27safi@gmail.com

Kalit so‘zlar: Gender tenglik, nikoh, mahr, nikoh shartnomasi, mulk, ajrim

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatdagi gender tenglik masalalari, ayollarning haq-huquqlarining himoyalanishi, oilaviy munosabatlarda ayolga berilishi zarur bo‘lgan mahr haqqi, ajrimlar so‘ngida ayollar mulksizligining oqibatlari to‘g‘risida fikr-mulohazalar bayon qilingan. Mamlakatimizdagi ajrimlar holati, oilalardagi mulkiy tengsizlik oqibatlari atroflicha muhokama qilingan, olib borilayotgan huquqiy islohotlar va mulkiy munosabatlardagi ba’zi kamchiliklar tanqid qilingan. Kundan-kunga ortib borayotgan ajrimlar va ularning sabablari tahlil qilingan. O‘quv maskanlarida, jamoat birlashmalari, mahallalar va boshqa barcha tashkilotlarda ayollarning haq-huquqlari, nikoh va unga kirishuvchi taraflarning huquq hamda majburiyatlari, mahr haqqi tushunchasi to‘laqonli tarzda tushuntirilishi zarurati bayon qilingan. Gender siyosati amalga oshirilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan axborot-ma’rifiy tadbirlarni rag‘batlantirish kabi masalalar taklif etilgan.

LEGAL STATUS OF GENDER POLICY IN UZBEKISTAN IN THE WAY OF NEW DEMOCRATIC CHANGES AND MEASURES TO ENSURE ACTIVE PARTICIPATION OF WOMEN IN PROPERTY RELATIONS

Key words: Gender equality, marriage, dowry, marriage contract, property, divorce

Abstract: In this article, opinions are expressed on the issues of gender equality in society, the protection of women's rights, the right of dowry that must be given to a woman in family relations, and the consequences of women's propertylessness after rulings. The state of rulings in our country, the consequences of property inequality in families were discussed in detail, the ongoing legal reforms and some shortcomings in property relations were criticized. Family divorces, which are increasing day by day, and their reasons are analyzed. The need to fully explain the rights of women, the rights and obligations of the parties entering into marriage, and the concept of dowry in educational institutions, public associations, neighborhoods and all other organizations. Issues such as encouraging informational and educational activities aimed at improving the legal culture of the population on issues of ensuring the implementation of gender policy were proposed.

ПРАВОВОЙ СТАТУС ГЕНДЕРНОЙ ПОЛИТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ В ПУТИ НОВЫХ ДЕМОКРАТИЧЕСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ И МЕР ПО ОБЕСПЕЧЕНИЮ АКТИВНОГО УЧАСТИЯ ЖЕНЩИН В ИМУЩЕСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЯХ

Ключевые слова: Гендерное равенство, брак, приданое, брачный договор, имущество, развод

Аннотация: В данной статье высказываются мнения по вопросам гендерного равенства в обществе, защиты прав женщин, приданого, которое должно быть дано женщинам в семейных отношениях, и последствиях оставления женщин без имущества после судебных решений. Подробно обсуждались состояние правлений в нашей стране, последствия имущественного неравенства в семьях, подвергались критике проводимые правовые реформы и некоторые недостатки имущественных отношений. Анализируются семейные разводы, которых день ото дня становится все больше, и их причины. Необходимость полного разъяснения прав женщин, прав и обязанностей сторон, вступающих в брак, и понятия приданого в учебных заведениях, общественных объединениях, микрорайонах и всех других организациях. Были предложены такие вопросы, как поощрение информационно-просветительской деятельности, направленной на повышение правовой культуры населения по вопросам обеспечения реализации гендерной политики,

Bugungi tez sur’atlarda rivojlanib borayotgan taraqqiyot davrida mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar inson qadr-qimmati har qanday davlat siyosatidan ustun ekanligini ko‘rsatib turibdi. Jumladan, xotin-qizlar huquq va

erkinliklari himoyasini mustahkamlash masalasida ham bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramasdan ba’zi kamchilik va bo‘shliqlar ham yo‘q emas. Jamiyatda ayollar huquqlari, gender tenglik masalasini tahlil qilishdan avval gender tushunchasining asl mohiyati haqida mulohaza qilish zarur. Gender — xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta’lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy jihatidir. Gender tenglik tushunchasi qachondan hayotimizga kirib kela boshladi? Gender tenglikning asl mohiyati nimada?

Gender tenglik tushunchasi jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta’lim, ilm-fan, sport munosabatlarida xotin-qizlar va erkaklarning huquq hamda imkoniyatlarining tengligini anglatadi. Ammo hali hanuz jamiyatimizda bu mavzuga nisbatan noto‘g‘ri talqin mavjud. Gender tenglik so‘zi tilga olinar ekan, jamiyat a’zolari tezda qarama-qarshi fikrlar, bir-biriga zid qarashlar girdobida qoladi go‘yo. Ba’zi insonlar nazarida gender tenglik deganda ayollar huquqlari qarshi jins vakillarining huquq va erkinliklariga nisbatan yuqori baholanadi. Aslida jamiyatimizda ayollarning kichik huquq va ustunliklari himoya qilinyaptimi? Gender tenglik mavjudmi?

Yuqoridagi savollarga kichik misol sifatida oilaviy munosabatlar hamda oilaviy ajrimlar jarayonida ayollarning huquqlari qay darajada himoya qilinishini tahlil qilgan holda javob izlaymiz. Mamlakatimizda ajrimlar sonining keskin ortib borayotgani hammamiz uchun kundalik xabarlardan biriga aylanib ulgurdi. Statistika agentligining 2022-yilda O‘zbekistonda qayd etilgan nikohdan ajralish holatlari haqidagi ma’lumoti ushbu vaziyatning ancha jiddiy tus olayotganini ko‘rsatmoqda. Agentlik keltirayotgan raqamlar o‘tgan yilgisi bilan taqqoslanganda 24 foizga oshgani ko‘rinadi.Ya’ni, 2022-yilda O‘zbekistonda jami 48 734 ta oila nikohdan rasman ajrashgangan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2021-yilda 39 227 tani tashkil qilgan.

Ajrim sabablari shunchalar maydaki, inson hayoti, qadr-qimmati, farzandlar kelajagi shu kichik vaziyatlar tufayli hal qilinmoqda. Ajrimlar ko‘p, yosh bolalar hali ota-ona mehriga to‘yib ulgurmay sarson, ayollar ota uyida qo‘ni-qo‘shni gap so‘zlari, qarindoshlar savollaridan berkinib, qayerga borishni bilmay yashashga mahkum. Ayollar uchun ajrim eng katta yo‘qotish, erkaklar uchun esa yana bir urinib ko‘rish uchun imkoniyatdek. Endi chuqurroq o‘ylab ko‘raylik, nima sababdan oilaviy ajrimlar kundan-kunga ko‘payib bormoqda? Javoblar turli xil bo‘lishi tabiiy, kimdir yoshlarning sabrsizligi, ilmsizligi yoki uchinchi shaxslar aralashuvining ko‘payganligini misol qilishi mumkin. Bunday sabablar ham mavjud albatta, ammo yana bir asosiy sabablardan biri ayollar haq-huquqlarining oyoqosti qilinishidir. Hattoki bu holat nikoh tuzilishi jarayonida yuzaga kelmoqda, ya’ni oila qurilar ekan ayol va erkak o‘rtasida xoh mahr masalasi bo‘lsin, xoh nikoh shartnomasi har ikkalasi ham tomonlar uchun ahamiyatsiz qolmoqda. Aslida esa ushbu ikki omil ayol haq-huquqlarining himoyalanishi uchun zarur hisoblanadi.

Gender tenglik nafaqat inson huquqini ta’minlash, balki, jamiyatni siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan ezgu qadriyat sanaladi. Qolaversa, gender tenglik – mamlakatning demokratik taraqqiyot darajasini ko‘rsatuvchi indikatorlardan biri hisoblanadi. Gender tenglik tushunchasi Yevropadan kirib kelmoqda degan noto‘g‘ri fikrni ilgari surishdan avval o‘z tariximiz, dinimizga nazar tashlashimiz zarur. Islom dinida ba’zi o‘rinlar borki, ayollarni erkaklardan ham yuqori darajaga ko‘tarilganini ko‘ramiz. Dinimizda ayol huquqlari nikoh tuzilishidan oldin himoya qilina boshlaydi. Nikoh – mo‘minning hayotidagi muqaddas rishta. Bu jarayonda kuyovning kelinga mahr berishi esa amalga oshirilishi farz hisoblangan amallardandir. Bu orqali birgalikdagi hayoti davomida erkakning ayolga nafaqa qilishi lozimligi uqtiriladi. Nikohdan avval mahr so‘rash ayolning haqqi. Mahr ayol uchun mulk bo‘la olishi, albatta moddiy qiymatga ega bo‘lishi shart. Mahr ayolning har qanday vaziyatda o‘zini muhofaza qilishi uchun xizmat qiladi. Biroq aynan o‘zbek oilalarida mahr so‘rash yoki berishni unitib qo‘yganlar kam emas. Hatto mahr haqida ma’lumotga

ega bo‘lmagan, uning qiymati, zaruratini anglab yetmagan insonlar ham talaygina. Ayollarimiz mahr olish tugul o‘zlarining oddiy haq-huquqlarini ham talab qila olishmaydi ba’zida. Ayollar haq-huquqlarining chegaralanishi natijasida ajrimlar soni kundan-kunga ortib bormoqda. Ajrimlar natijasi ko‘pgina hollarda bir xil yakunga ega. Ayol uch yoki to‘rt bolasi bilan ota uyiga qaytishga majbur. Chunki, unga bolalari bilan yashashi uchun alohida boshpana ajratish tartibi hech qaysi huquqiy hujjatda belgilab qo‘yilmagan. Faqat ba’zi istisno holatlar mavjudki, ayol turmush o‘rtog‘i bilan qonuniy nikohi davomida orttirgan mol-mulki ajrimdan so‘ng teng ikkiga bo‘linishi yoki ayol doimiy ro‘yxatda turgan xonadonga bolalari bilan birga yashash uchun kiritib qo‘yilishi mumkin. Ammo bunday holatlar kamdan-kam uchraydi.

Mamlakatimizda ayollar haq-huquqlarining himoyalanishini ta’minlovchi bir qancha huquqiy asoslar mavjud. Ularga misol sifatida davlatimiz rahbari tomonidan 2019-yil 2-sentabrda **“Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”**gi hamda **“Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”**gi yangi qonunlar imzolanganini ko‘rsatish mumkin. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 46-moddasida **“Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar”**, deb belgilab qo‘yilgan. Biroq qonunlarning amalda yaxshi ishlashi uchun jamiyatimizning har bir a’zosi mas’uldir.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatimizda shunday muhitni shakllantirishimiz kerakki, turmush qurayotgan har bir ayol va erkak mahr masalasini qanchalar muhim ekanligini, ayollar o‘z mulkiy huquqlarini chuqur anglab yetishsin. O‘quv maskanlarida, jamoat birlashmalari, mahallalar va boshqa barcha tashkilotlarda ayollarning haq-huquqlari, nikoh va unga kirishuvchi taraflarning huquq hamda majburiyatlari, mahr haqqi tushunchasi to‘laqonli tarzda tushuntirilishi zarur. Gender siyosati amalga oshirilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan axborot-ma’rifiy tadbirlarni rag‘batlantirish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash lozim. Qachonki, jamiyatimiz a’zolari ayollar haq-huquqlarini, oilaviy munosabatlardagi huquqiy

tenglikni chuqur anglab yetsa va mahr haqqi qonuniy kuchga kiritilsa boshpanasiz, muhtoj ayollar, qarovsiz bolalar va turli noxush vaziyatlar oldi olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[1]. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.

[2].O‘zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi.

[3].O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” gi qonuni. 2019-yil 2-sentabr, O‘RQ-562-son.

[4].Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Зикр аҳлидан сўранг: 3-қисм.—Т.: “Hilol-Nashr” 2018. —400 б.

[5].https://lex.uz/

[6].http://stat.uz/